

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA NUTQIY SAVODXONLIKNI O'RGATISHDA
ILMIY USTUVORLIKKA ERISHISH**

Dilrabo Ashurova

Buxoro viloyati Buxoro tuman

4-umumta'l'm maktabi boshlang'ich

sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy savodxonlik qobiliyatini oshirish nazariy jihatdan o'r ganiladi. Amaliyotga tatbiq qilish masalalari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *nutq grammatika, sodda nutq, murakkab nutq, lingvistik jarayon*

Nutq- tilning ifodalash va fikr almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli tushuniladi. Nutq ikki holatda namoyon bo'ladi: og'zaki(ovozli) hamda yozma. So'zlashuv jarayonidan xotiraga saqlab qolningan qismi ham nutqiy shaklning bir misoli hisoblanadi. O'quvchi yoshlarga savod chiqarish yoshidan boshlab to'g'ri va ravon nutqni shakllantirishga asosiy e'tibor qaratiladi. Bu, o'z navbatida, grammatik tushunchalar va grammatik qoidalarni yaxshiroq o'r ganish, va ularni nutqqa yaxlit olib kirishdagi xato va kamchiliklarni bartaraf etishfdan iborat. Grammatikani o'r ganish samarali nutq va notiqlikning asosi hisoblanadi. O'zbek tilini yaxshi o'r ganish bilan bir qatorda uni amaliyotda-nutqda qo'llay olish alohida ahamiyat kasb etadi. Savod chiqarish yoshidan boshlab ravon nutqqa doir ko'nikmalarni shakllantirib borish kelasi ish faoliyatimiz uchun qulayliklar yaratib beradi. Samarali nutqni ta'minlab beruvchi omillar sifatida bir qancha vaziyatlarni ko'rib o'tsak:

-segment va ustsegment birliklar: urg'u, to'xtam va pauza, mimikalarni to'g'ri qo'llay bilish:

Segment birliklar deganda so'zlar tarkibidagi harflarning, gaplar tarkibidagi so'zlarning ma'lum bir ketma-ketlikda kelib aniq bir tushunchani ifodalashiga aytiladi. Jumla tuzishda qo'shimchalarni to'g'ri qo'llay olish, tasviriy ifoda va iboralardan nutqni boyitish uchun foydalanish;

Ustsegment birliklar esa nutqiy ta'sirchanlik hamda ifoda ravonligini ta'minlaydigan birliklar hisoblanadi. Gap tarkibidagi fikr qaratilishi zarur bo'lakni kesim oldiga keltirish bilan boshqa so'zlardan ajratish. tinglovchi zerikishiga olib keladigan omillar(ovoz tonining birxilligi yoki doimiy baland tovush)ni bartaraf etishga ko'maklashish, bunda ovoz tembrinig o'zgaruvchanligiga e'tibor qaratiladi.

To'xtam(pauza) aynan nutqning hissiy-emotsionallik darajasini oshirib berishga xizmat qiladigan omillaran biridir. Qadimiy notiqlik san'atiga e'tibor qaratadigan

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

bo'lsak, baxshichilik san'at namoyondalari ham dostonlarning eng avj nuqtasida to'xtalishlar, yokida nutqiy cheklanishlardan foydalanishadi.

Tinglovchini jalb qilishda nutqiy ravonlikning o'zi yetarli emas deb hisoblaymiz, yuz ifodalari(mimka) hamda qo'lllar harakatini qo'shish orqali nutqiy ifodani yanada yaxshilashga erishiladi.

- Shevaga oid so'zlarni qo'llashdan o'quvchilarni adabiy so'zlashuv usuliga ko'nikmalarini shakllantirish:

Ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra ham kundalik turmushda muloqotga kirishish davomida nutqda xatoliklar yoki farqlar kuzatiladi. Ulardagi nutqiy ravonlikka erishish uchun adabiy tilga aynan kiritilgan so'zlarni o'rganishini ta'minlab berish. Har bir so'zni aniq va ravon talaffuz etishga diqqatni qaratish;

-og'zaki nutqda aks etuvchi tovush o'zgarishlarini yozuvda aks etmaslikka o'rgatish(reduksiya, metateza...);

Reduksiya – reduksiya hodisasi so'zlar tarkibiga qo'shimcha qo'shish natijasida asos tarkibidagi tovushlarning fonetik hodisaga uchrab tushib qolishi va ikkinchi ko'rinishi esa talaffuz jarayonida unlilarning talaffuz etilmay qolishidir. Asosan, unli tovushlar reduksiyaga uchraydi, ba'zida esa undoshlarda ham kuzatilishi mumkin. Reduksianing ikki xil hodisasini ko'rishimiz mumkin; og'zaki va yozma. Og'zaki deganda, faqatgina talaffuzda aks etib, yozuvda aks etmaydigan ko'rinishi nazarda tutiladi. M: bilan sira, qiziq so'zlaridagi birinchi "I" ttovushi bilinar-bilinmas talaffuz qilinadi.

Metateza-bu tovush o'zgarishi ham faqatgina og'zaki nutqda aks etadi. So'zlar tarkibidagi tovushlarning o'rinni almashib qo'llanilishiga aytildi. M: daryo-dayro, tuproq-turpoq singari.... Faqat og'zaki nutqda tovush o'zgarishariga uchrab, yozma nutqda aks etmaydigan hodisalardan bir qanchasini sanab otishimiz mumkin, va bunday so'zlarni yozuv va talaffuzda farqlashni o'rgatish ravon nutqiy jarayonni ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

-o'zbek tili grammatik qoidalarni amaliy mashqlar yordamida o'quvchilarga tushuntrib berish:

Dars jarayonida faqatgina kitobdagi qoida va mashqlar bilan cheklanib qolmay, darsning ko'p qismini o'quvchilarining faoliyatida qo'llay olish qobiliyatini oshirishga diqqat e'tiborni qaratish.

-o'quvchilarda og'zaki nutqni rivojlantirishdagi e'tiborga molik jihat-keng jamoatchilik, auditoriya, omma oldida nutq so'zlashga o'rgatish:

O'quvchi yoshlar qay bir soha mutaxassis bo'lishlaridan qat'i nazar ravon nutq va notiqlik qobiliyati bo'lmosg'I zarur. Shunday ekan, sodda nutq tuzishdan boshlab o'quvchilarda yaxshi nutq so'zlay olishgacha bo'lgan davr uchun kichik jamoa oldida nutq so'zlay olish tayanch vazifasini o'taydi.

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zME Toshkent 2000-yil.
2. Inomxo`jayev S.O`tmish Sharq notiqligi. T.1972
3. Begmatov E.Notiqning nodir boyligi.T.1980
4. Qilichev B.Nutq madaniyati.O`MM.Buxoro,2021